

1. To‘plamni taqdim etish muddati: 2020-yilning 9-mayidan 16-may kuniga qadar. Amal qilish hududi – O‘zbekiston Respublikasi, Sirdaryo viloyati, “O‘zmobayl” GSM/CDMA standart tarmog‘i.
2. Maxsus xizmat to‘plamlari “Faol” holatdagi jismoniy shaxslarga, GSM/CDMA standart tarmog‘i abonentlariga taqdim etiladi.
3. Maxsus to‘plamlar faqatgina Sirdaryo viloyatida amal qiladi, hududdan tashqarida to‘plamning trafiklari sarf etilishi to‘xtatiladi, va tarif reja yoki pullik to‘plamning shartlariga ko‘ra narxlanadi. Sirdaryo viloyatining chegaradosh tumanlarida, qo‘shni viloyatlar hududlarining xizmat ko‘rsatadigan baza stansiyalarining amal qilish hududida bo‘lgan holatlarda, xizmatlar tarif reja yoki pullik to‘plamning shartlariga ko‘ra narxlanadi.
4. To‘plamlar quyidagi tarif rejalaridagi jismoniy shaxslar uchun amal qiladi:
 - GSM standart tarmog‘ida - C1, C2, C3, C4, Salom, Salom Plus, Step, Traffic, Uzmobil 1200, Uzmobil 4000, Konstruktor, Uzmobil VIP, Aloqachi, Yoshlar, Komfort, Oddiy 10, Ishbilarmon, Street, Flash, Street Upgrade, Flash Upgrade, Ta’lim, E’zoz.
 - CDMA standart tarmog‘ida – Oddiy, Oddiy +, Optimal, Optimal+, Obod, CDMA-180, EV-DO modem, M2M CDMA, VIP MOBILE, VIP UNIVERSAL, CDMA-500, CDMA-1000, CDMA-1500, CDMA-2000, CDMA-2500, CDMA-LUX, 20 so‘m, Bir qadam oldinda.
5. GSM mobil tarmog‘i abonentlari uchun “1000 MB+1000 daqiqa” majmuaviy to‘plami taqdim etiladi, CDMA abonentlari uchun esa faqat “1000 daqiqa” to‘plami taqdim etiladi. To‘plamlar faqat bir marta taqdim etiladi.
6. To‘plamlar pullik ovozli/Internet to‘plamlarga nisbatan bir turda hisoblanmaydi, tabiiyki, ularning amal qilish muddati va to‘plamga kiritilgan trafik sarfi alohida hisoblanadi. Maxsus to‘plamlarni faollashtirishda ularning trafigi sotib olingan to‘plamlar trafigi bilan umumlashtirilmaydi, amal qilish muddati har bir to‘plam uchun alohida belgilanadi.
7. Raqam yoki tarif reja o‘zgartirilganda, Aksiyani taqdim etish shartlari o‘zgarmaydi.
8. Sarflanish ustuvorligi:

Internet uchun:

- Kunlik Internet-to‘plamlar
- Maxsus Internet-to‘plamlar
- Tarif reja doirasidagi Internet-trafik
- Sotib olish tartibidagi boshqa sotib olingan to‘plamlar.

Daqiqalar uchun:

- Maxsus daqiqalar to‘plami
 - Tarif reja doirasidagi daqiqalar
 - O‘zR bo‘yicha qo‘ng‘iroqlar uchun sotib olingan to‘plam
9. Maxsus to‘plamlarni taqdim etish shartlari haqida xabardor qilish tegishli ma’lumotlarni Internet tarmog‘idagi www.uztelecom.uz rasmiy saytida va boshqa aloqa vositalarida joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
10. Kompaniya maxsus to‘plamlarni taqdim etish shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega va bunda tegishli ma’lumotlarni Internet tarmog‘idagi www.uztelecom.uz rasmiy saytida va boshqa aloqa vositalarida joylashtirish orqali, misol uchun, SMSxabarnomalar yuborish yoki boshqa usullar orqali amalga oshiriladi. Ishtirokchilar tegishli o‘zgarishlarni yuqorida ko‘rsatilgan sayt orqali tekshirishlari shart.
11. Shartlar “O‘zmobayl” GSM/CDMA tarmog‘ining amal qilish hududida amal qiladi.
12. Holatni tekshirish:
- GSM standarti tarmog‘i abonentlari uchun – 9999 qisqa raqamiga 1002 sonlarini SMS tarzida jo‘natish yoki *100*2# USSD kodini terish, *107#.
 - CDMA standart tarmog‘i abonentlari uchun – 102 raqamga bo‘sh SMS xabarni yuborish.

